


NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi
asosida shakllantirildi)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


2



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

3

23 946




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 329



Oilaviy korxonona

152



Unitar korxonona

6 267



Xususiy korxonona

18



Aksiyadorlik jamiyati

422



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022-yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-noyabr oylarida)






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 1 412 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 203 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 329 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 179 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 305 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga yoki 93,8 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 24 855 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 654 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23 946 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 490 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 392 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 344 taga yoki 92,7 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 322 tani tashkil etib, ulardan 316 tasi yoki 98,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 31 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 40 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	70	53	17
Qozog'iston Respublikasi	13	7	6
Xitoy Xalq Respublikasi	57	28	29
Qirg'iziston Respublikasi	10	8	2
Tojikiston Respublikasi	13	10	3
Turkiya Respublikasi	44	16	28
Hindiston Respublikasi	15	6	9
Janubiy Koreya Respublikasi	30	21	9
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	5	2	3

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


10

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	316	187	129
Namangan shahri	108	56	52
Mingbuloq	6	2	4
Kosonsoy	33	23	10
Namangan	21	17	4
Norin	11	6	5
Pop	32	23	9
To'raqo'rg'on	14	7	7
Uychi	18	14	4
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	25	13	12
Chust	24	13	11
Yangiqo'rg'on	14	8	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 108 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 34,2 %), Kosonsoy 33 ta (10,4 %), Pop 32 ta (10,1 %), Chortoq 25 ta (7,9 %), Chust 24 ta (7,6 %), Namangan 21 ta (6,7 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (jami ro'yxatga olingan 38 014 ta yuridik shaxslarning) ulushi Namangan shahri (32,9 %), Chust (8,0 %), Namangan (6,7 %), Uychi (6,6 %), Uchqo'rg'on, Pop (6,3 %dan), To'raqo'rg'on (6,2 %), Kosonsoy (6,1 %), Chortoq (6,0%), Yangiqo'rg'on (5,3 %), Norin (5,1 %) hamda Mingbuloq (4,5 %) hissalariga to'g'ri

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi ro'yxatga olingan 5 196 ta yuridik shaxslarning), ulushi Namangan shahrida (30,7 %), Uchqo'rg'on (8,0 %), Chust (7,7 %), Chortoq (7,3 %), To'raqo'rg'on (6,7 %), Uychi (6,6 %), Norin (6,2 %), Namangan (6,1 %), Yangiqo'rg'on va Pop (5,8 %dan), Kosonsoy (5,2 %) hamda Mingbuloq (3,9 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda (faoliyat ko'rsatayotgan 23 946 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning) ulushi Namangan shahrida (36,0 %), Uychi (7,0 %), Chortoq (6,8 %), Pop (6,5 %), Kosonsoy (6,4 %), Uchqo'rg'on (6,0 %), Namangan (6,0 %), Chust (5,8 %), Norin (5,4 %), Yangiqo'rg'on (5,3 %), To'raqo'rg'on (5,1 %), Mingbuloq (3,7 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi tashkil etilgan 305 ta oilaviy korxonalarining), ulushi Namangan shahri (32,8 %), To'raqo'rg'on (18,3 %), Yangiqo'rg'on (13,4 %), Namangan (7,9 %), Chortoq (6,9 %), Chust (4,3 %), Pop (3,9 %), Mingbuloq, Uychi (3,3 %dan), Norin (2,3 %), Kosonsoy (2,0 %), Uchqo'rg'on (1,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.